



**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR
KAFEDRASI**

**TARIX FANIGA OID TADQIQO‘TLAR –
YOSHLAR NIGOHIDA**

**TALABALAR ILMIIY-AMALIIY ANJUMANI
MAQOLALAR TO‘PLAMI**



TOSHKENT – 2026

Mas'ul muharrir:

I. Bobojonov – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Tahrir hay'ati a'zolari

I. Xo'jaxonov – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

S. Ulfatillayeva – Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Taqrizchilar

H. Hamidov – Oriental universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrası professori, Tarix fanlari bo'yicha doktori

N. Sattorov – O'zMPU “Jahon tarixi” kafedrası dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Oriental universitetida talabalarning ilmiy salohiyatini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlash va tadqiqot olib borishga yo'naltirish maqsadida Universitet Rektori buyrug'i bilan 2026-yil 18-fevral kuni “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrası tomonidan “Tarix faniga oid tadqiqotlar – yoshlar nigohida” mavzusida tashkil etilgan talabalar ilmiy-amaliy anjuman ilmiy maqolalari va tezislari o'rin olgan.

Unda talabalar, magistrantlar hamda yosh tadqiqotchilarning ilmiy faoliyati tadqiqiga bag'ishlangan qator ilmiy izlanishlari natijalari o'rin olgan.

Anjuman materiallaridan tadqiqotchilar, pedagoglar, oliy o'quv yurti talabalari manba sifatida foydalanishlari mumkin.

To'plamdagi maqolalar matni va mazmuniga mualliflar mas'uldir!

Komor orollari Janubi-sharqiy Afrikada joylashgan mamlakatlardan biri bo'lib, u Mozambik va Madagaskar oroli orasida joylashgan. Uning qirg'oqlarini Hind okeani suvlari yuvib turadi.

Davlatning nomi arab tilidan olingan "alqamaru, al-qamar" , ya'ni "Oy" deganidir.

II asrdan yevropalik geograflar jumladan Ptolemey asarlaridan boshlab Afrika xaritalarida Oyning xayoliy tog'larini tasvirlashgan. Ularning asl arabcha nomi Jezair al-Komra (oy orollari) XVI asr boshlarida portugal dengizchilari tomonidan biroz o'zgartirilgan. Bunga ushbu hududdagi mahalliy aholining Oyga sig'inishi sabab edi.

Yuqoridagi misollar shuni ko'rsatadiki, Afrika qit'asidagi arab davlatlarining toponimlari asosan joyning geografik o'rni, relyefi, tabiati va ushbu hududlarda yashagan xalqlar(etnonim)ga bog'liq holda vujudga kelgan. Toponimlar ya'ni geografik joy nomlarini o'rganish, ilmiy jihatdan izohlash va ularni insonlarga yetkazish muhim va dolzarb masala hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hasanov H. Geografik nomlar siri. Toshkent: "O'qituvchi", 1985.
2. Qorayev S. Toponimika. Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti", 2006 – 320 b.
3. G'ulomov P., Mirakmalov M. Toponimika va geografik terminshunoslik. Toshkent, 2005
4. Поспелов Е.М. Географические названия мира: Топонимический словарь. М.: Русские словари: ООО «Издательство Астрель»: ООО «Издательство АСТ», 2002. — 512 с.
5. www.wikipedia.org

MUHOJIR ZIYOLILARNING "YOSH TURKISTON" JURNALIDA ISMOIL GASPIRALI SIYMOSINING YORITILISHI

Xo'jageldiyev Habibulla Maqsudjonovich

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: dotsent Gulnoza Alijonova

Annotatsiya. Mazkur maqolada muhojir turkistonlik ziyolilarning "Yosh Turkiston" jurnalidagi xotiralari asosida Ismoil Gaspiralining Turkistondagi jadidchilik harakati va ma'rifiy uyg'onishdagi o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: Ismoil Gaspirali, "Yosh Turkiston", muhojir ziyolilar, jadidchilik harakati, ma'rifiy uyg'onish, ta'lim islohoti.

Аннотация. В данной статье на основе воспоминаний эмигрантских туркестанских интеллигентов, опубликованных в журнале «Yosh Turkiston», освещается роль Исмаила Гаспринского в джадидистском движении и просветительском возрождении в Туркестане.

Ключевые слова: Исмаил Гаспринский, «Yosh Turkiston», эмигрантские интеллигенты, джадидистское движение, просветительское возрождение, реформа образования.

Annotation. This article examines the role of Ismail Gasprinsky in the Jadidist movement and the educational and cultural revival in Turkistan, based on the memoirs of émigré Turkistani intellectuals published in the journal Yosh Turkiston.

Keywords: Ismail Gasprinsky, Yosh Turkiston, émigré intellectuals, Jadidist movement, cultural revival, educational reform.

Ismoil Gaspirali Turkiston xalqi ichida ham savodxonlik, modern tafakkur va milliy tarbiyaga asoslangan zamonaviy ilm-fan va madaniyat yo‘liga da’vat qiluvchi yetakchi sifatida tanildi. Uning gazeta va risolalari, yangi usul maktablariga doir konsepsiyasi va ma’rifiy tashabbuslari, shuningdek, turkiy dunyodagi ilmiy-ma’naviy uyg‘onishga qo‘shgan hissasi bu o‘lkada ham katta qiziqish va e’tirofga sazovor bo‘ldi. Shu tariqa, Ismoil Gaspirali shaxsi nafaqat Qrim va Volga bo‘yi hududida, balki Turkistonda ham jadidchilik harakatining asosiy ramzi va ma’rifiy uyg‘onish timsoli sifatida nom qozondi.

Jumladan, Mahmudxo‘ja Behbudiy ham Ismoilbek Gaspiralinini “Hodimul millat” [1, – B.4.] deb hisoblab, “Musulmonlarni dunyodan habardor qilmoq uchun butun Rossiyada, Turkiya, Misr, Tunis, Jazoir, Hind va Afriqoda, Turkiston va Buxoroda daf’alar ila sayohat etib, har yerda musulmonlarni madaniyati zamoniya’ga, ulum va fununi asriya’ga, sanoat va tijorati qarina’ga va rus madaniyatig‘a da’vat va tashviq etgandurlar. Usuli savtiya maktablarini Rossiyada boniy muassisi Ismoilbek hazratlaridur. Birinchi yangi usul alifboni murattib va noshiri yana Ismoil hazratlaridur. Taraqqiyoti zamoniya’ga yolg‘iz da’vat emas, fe’lan harakatda bo‘lib, jamiyati hayriya, qiroatxona, taraqqiyuni islom, taovun jamiyatlari va bularga o‘xshash asoslarga ta’alluq nizomnomalar tuzatib, xalq arosinda nashr etib, bu kun adadi yuzlar ila Rossiyada mavjud ilmiy va madaniy jamiyalarni barpo etgandurlar. Al’on Rossiyadagi minglar ila nizomlik maktablar va sobiq nashr bo‘lgan va hozir fe’lan nashr bo‘lib turgan yuzlar ila islomiy majalla va jaridalarining barcha muharrir va mudirlari ul zoti studasifotin shogirdidurlar... Xulosa, Ismoilbek hazratlari suls asrdan ziyoda avom tadrisinga (darsxonalarida – M. Alijonov) millionlar ila musulmonlarga doiman dars berdi.

Endi ilalabad aning afkori va ruhi adadsiz va nihoyasiz musulmonlarg'a darsi irfon berar" [1, – B.5.], deb chuqur ehtrom bilan uni yodga oladi.

Behbudiydan tashqari Siddiqiy Ajziy [2, – B.23.], Abdulla Avloniy [3, – B.169-170.], Kamiy [4, – B.3.], Sadridin Ayniy [5, – B.2.], Ashurali Zohiriy [6, – B.1.] Hamza Hakimzoda Niyoziy [7, – B.148-150.], Tavallo [8, – B.2.], Rojii Faxriddin [9, – B.6.], Mirmuhsin Shermuhammedov [10, – B.2.] va boshqa ko'plab turkistonlik ziyolilar Ismoil Gaspiralinining hayoti va faoliyatiga bag'ishlab maqola va she'rlar yozib matbuot sahifalarida e'lon qilgan. Shuningdek, shoir Abdulhamid Cho'lpon u bilan bevosita maktublar almashgan [11, – B.54-55].

Ayniqsa, XX asrning 20-30-yillarida Sovet hukumatining zulm va istibdodi sabab Turkistonni tark etishga majbur bo'lgan milliy ziyolilarning xotiralarida Ismoil Gaspiralinining ushbu o'lkada tutgan mavqeyi to'g'risida muhim ma'lumotlar keltirilgan.

Jumladan, 1929-1939-yillarda muhojir turkistonlik ziyolilar tomonidan Parij va Berlin shaharlarida nashr etilgan "Yosh Turkiston" jurnalida Ismoil Gaspiralinining hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan xotiralar chop etilgan va uning surati ham ilova qilingan.

Xususan, xuddi shu jurnalning 1933-yil aprelidagi 41-sonida Munavvarqorining "Na'muna" maktabi o'quvchilaridan biri, keyinchalik Germaniyaga tahsil olish uchun ketib mashhur sotsiolog olim bo'lib yetishgan Tohir Chig'atoyning "Gaspirali Ismoilbek" nomli xotirasi chop etilgan. Tohir Chig'atoy o'zining ushbu xotirasini "Tarjimon" gazetasining chiqishiga 50 yil to'lishi munosabati bilan yozgan.

Tohirbek mazkur xotirasida quyidagilarni yozadi: "Ismoilbek... Bu ismni ilk dafa o'laroq eshitarkan endigina maktab yoshig'a oyoq bosg'on yetti yoshliq kichikkina bir bola edim. Butun kun bola-chaqalari uchun qayg'urg'on otam kechqurun bir holda uyimizga qaytg'onda meni tizzasining bir tomoniga o'tqazub yuzimga qarab: "O'g'lim, ortiq kattagina bola bo'lib qolding. Seni maktabga oborib qo'yay..." dedi. Men esa o'zimdanda anchagina ortiq bo'lg'on gavdamga qaraganda og'irroq ko'ringan boshimni liqillatib "Yo'q ota, men maktabga bormayman. Domla uradir...", deb maktabga borishlikdan tortinar edim. Otam meni unatishga urinib: "O'g'lim, seni Qoratut mahallasidagi maktabga emas, Shayhovandtohurdagi Munavvarqorining yangi Ismoilbek maktabiga qo'yaman. U maktabda bolalarni kaltaklamaslar...", – derdi.

Bir necha oy o'tkach...og'am meni Shayhovandtohurdagi shu maktabga keltirib qo'ydi. Bir necha kun kechdi...yosh bolalarni kaltaklamaydirgan bu maktabning "Ismoilbek maktabi" emas, "Na'muna maktabi" ekanligini bilib hayron bo'lib qolg'on edim. Otam yanglishqon edimi? Yohud mudirimiz Munavvarqorining Shayhovandtohurda "Ismoilbek maktabi" degan boshqa bir

maktabi ham bor edimi? Yohud og'am meni Munavvarqorining "Ismoilbek maktabi" degan maktabiga olib borish o'rnig'a yanglishib, uning "Na'muna" degan maktabiga keltirib qo'ydimi? Mana o'z-o'zimga bergan bu so'roqlarim boshimni ko'pgina og'ritar edi.

Muallimlarimiz chindanda yaxshi va yumshoq so'zli, kular yuzli yigitlar edilar. Bularning hech biri mening og'alarim va mendan yoshroq qarindoshlarim o'qiydurg'on Qoratut maktabidagi yo'g'on tayoqli domlag'a o'xshamaslar edi. Butun o'quvchilar muallimlarimizni ko'p suyar edik. Muallimlarimiz ham yoqimli qiliq va totli so'zlari bilan bizning barchamizni o'zlariga mahkam bog'lab olgan edi. Birgina yuqori sinflarda Qur'on va tajvidga doir qoida darslarini beruvchi Abdusome' qorining o'tkir qarashlari barchamizni qo'rqitardi.

Bir kun darsdan so'ng shogirdlar barobar ekan u meni ko'rgach to'xtadi va yonig'a yaqinlashg'onimda boshini to bo'yimg'acha egib o'ng qulog'ini og'zimg'a qadar keltirdi. Sekingina:

- Afandim, bizning maktab "Na'muna maktabi" to'g'rimi?
- To'g'ri, buni shu kungacha bilmasmiding?
- Bilardim...faqat bizning yosh muallimimiz Munavvarqorining "Ismoilbek maktabi" degan maktabi qayda?

Maktab hovlisidan to Shayxxovandtohur masjidining zinasiga qadar so'ylashib keldik. Biz bu zina qarshisidag'i tramvay to'xtaydirg'on yerga kelguncha yosh muallim Turkiston bolalarig'a tez yozuv va tez o'qituvni o'rgatadurgan yangi maktablar ochmoq fikrini tarqatg'on zotning Ismoilbek nomida ulug' bir muallim bo'lg'onlig'ini anglatmish va gazeta o'qiydurg'on kishilarning bizning maktabga o'xshash yangi maktablarga ko'pincha "Ismoilbek maktabi" deb aytadirg'onlarini so'ylamishdi. Men muallimimning so'zlarini tinglab, otamning yanglishmag'onidan sevinib, muallim bilan xayrlashib undan ayrildim. Bundan so'ngra men ham otamg'a o'xshab bizning "Na'muna maktabi"ni ko'pincha "Ismoilbek maktabi" deb atab yurdim" [12, – B.13.].

Ushbu xotirada yana bir muhim jihat bor. Ma'lumki, Ismoil Gaspirali 1914-yilning 24-sentabr kuni vafot etgan. Uning vafoti bilan bog'liq yosh o'quvchi Tohirning quyidagi xotiralari Ismoilbekning nufuzi Turkiston ziyolilari ichida nechog'lik baland bo'lganligini ko'rsatadi: "Maktabimizning to'rtinchi sinfida o'qirdim. O'n yoshda edim. Sentabr oyining issiq kunlaridan biri – shanba kuni edi. Qarindoshlarimizning bog'idan o'tib qaytqonimdan maktabga vaqtida bora olmag'onimni o'ylab o'ng'aysizlik sezmakda edim. Toshkentning tekis bo'lmag'on ko'chalarida yugura-yugura ketarkanman yo'lda u zamong'i sinf rahbarimiz – o'tkir boqishli Abdusome' qorining baqirishlarini o'ylab yuragimni qo'rquv bosmishdi. Nihoyat terlab, pishib maktabimizning hovlisiga yetishganimda qiziq bir manzara qarshisida qolmishdim. Butun o'quvchilar

maktabimizning hovlisidagi meva og‘ochlari va so‘rilari ostig‘a yoyilmishlardi. Muallimlarimiz ham hovlining bir chetida doira holida turib so‘ylashmakda edilar. “Nima gap?” savolimga sinfdoshlarimdan biri “Bir muallim o‘lganmish. Shuning uchun dars boshlanmayapti”, dedi. Ko‘zlarim darhol muallimlarimiz to‘plang‘on tomong‘a tikildi. Ular orasida Munavvarqorini ko‘rmagach nima qilishimni bilmay bo‘zarib qolmishdim. Shu og‘ir daqiqalar o‘tarkan tashqaridan Munavvarqori kirib keldi. Biroz o‘zimga keldim. Demak, o‘lgan boshqa bir muallim edi.

Mudirimiz Munavvarqori muallimlar bilan ko‘rishib, ular bilan qisqag‘ina so‘ylashgandan so‘ng talabalarga qarab: “Sevikli aziz yosh o‘quvchilar! Kechagi juma kuni bayramingizni sizlar har tomonda o‘ynab, kulib o‘tkazayotganingizda biz motam ichida kechirdik. Kecha biz sizga o‘xshash musulmon bolalarig‘a tezgina yozuvni, tezgina o‘quvni o‘rgatadigan yangi maktablarning pro‘g‘romlarni yasag‘on, bularni o‘z gazetasi orqali barcha musulmon o‘lkalariga tarqatib, millatning uyg‘onuvi va yorug‘liqqa chiquvi yo‘linda katta xizmatlar qilib kelgan ulug‘ muallim, buyuk muharrir Ismoilbekning o‘lganligi xabarini eshitdik... Bu motamni ortiq sizlar bilan birga davom ettirurmiz...” [12, – B.14-15.].

Xulosa o‘rnida ta’kidlash mumkinki, Ismoil Gaspirali o‘zining ko‘plab ilmiy va badiiy asarlari bilan Turkiston, umuman Rossiya musulmonlari o‘rtasida ilk va o‘rta asrlarda bo‘lgan ilm va madaniyatga bo‘lgan muhabbat va ijtihodni uyg‘otishga harakat qildi. U tomonidan yozilgan barcha asarlar kelgusida siyosiy va amaliy jarayonga aylanib ketgan Turkiston jadidchilik harakatining shakllanishi va rivojlanishida dasturul-amal vazifasini o‘tadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1) Mahmudxo‘ja. Ismoilbek hazratlari // “Oyina” jurnali. – 1914-yil 4-oktabr. – № 50. – B. 4.

2) Siddiqiy Ajziy. Tashakkur va rijo // “Sho‘ro” jurnali. 1913-yil 1-iyul. № 13. – B. 23.

3) Abdulla Avloniy. Adibi shahir Ismoilbek ruhina // “Tanlangan asarlar”. – T.: “Ma’naviyat nashriyoti”. 2020. – T. 169-170.

4) Kamiy. Haqoyiq ogoh, maorif dastgoh, ustodi zamon, sohibi “Tarjumon” janobi Ismoilbek hazratlarining ruhi purfutuhlarina ittihof // “Sadoyi Turkiston” gazetasi. 1914. № 43. – B. 3.

5) Sadridin Ayniy. Buyuk bobomizning musibati ila parishon o‘lan xotirdan bir necha parishona she’rlar // “Sadoyi Turkiston” gazetasi. 1914-yil 20-sentabr. – B. 2.

6) Ashurali Zohiriy. Marhum Ismoilbek qanday ishlar qilgan? // “Sadoyi Farg‘ona” gazetasi. 1914-yil 17-sentabr. – B.1.

- 7) Hamza Hakimzoda Niyoziy. Yavmul-vafot // Ismoil Gaspirali va Turkiston [Maqolalar to'plami]. – T.: “Sharq” nashriyoti. – B. 148-150.
- 8) Tavallo. “Marsiya-i ustod Ismoilbek janoblari // “Sadoyi Turkiston” gazetasi. 1914. № 42. – B. 2.
- 9) Rojij Faxriddin. Ismoilbek hazratlarig‘a // “Oyina” jurnali. 1914. № 49. – B. 6.
- 10) Mirmuhsin Shermuhammedov. Inna lillahi va inna ilayhi roji'un // “Turkiston viloyatining gazetasi”. 1914, № 75. – B. 2.
- 11) Karimov B. Ismoil Gaspirinskiy va Cho'lpon // “Ismoil Gaspirinkisy va Turkiston” [Maqolalar to'plami]. – T.: “Sharq” nashriyoti. 2005. – B. 54-55.
- 12)Yosh turkistonlik (Tohir Chig‘atoy). G‘aspirali Ismoilbek // “Yosh Turkiston” jurnali. 1933-yil aprel. № 41. – B. 14-15.

HARBIY SAN'AT TARIXIDAN LAVHALAR: SARKARDALAR HAYOTI VA QAHRAMONLIGI

AMIR BAHODIR YALANGTO'SH – O'ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXIDA SARKARDALIK VA BUNYODKORLIK TIMSOLI

Iskandarova Zulayho

Filologiya va tillarni o'qitish (arab tili) AF504-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: tarix fanlari bo'yicha phd, dotsent Islombek Bobojonov

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada XVII asr Movarounnahr tarixida muhim o'rin tutgan davlat arbobi, yirik sarkarda va bunyodkor shaxs — Bahodir Yalangto'shbiyning hayoti va faoliyati keng tahlil qilinadi. Keyingi bandlarda uning kelib chiqishi, harbiy-siyosiy faoliyati, Samarqand hokimi sifatidagi boshqaruv uslubi hamda Registondagi me'moriy obidalar bunyod etishdagi xizmatlari tarixiy manbalar asosida yoritilgan. Tadqiqot natijalari Bahodir Yalangto'sh siymosini o'zbek davlatchiligi va madaniyati rivojida muhim o'rin egallagan tarixiy shaxs sifatida baholash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: *sarkarda, amir ul-ulamo, Movarounnahr, amir, xonlar, Registon ansambli, Sherdor madrasasi, Tillakori madrasasi, Alchin urug'i, mudofaa.*

ABSTRACT. This article provides a comprehensive analysis of the life and activities of Bahodir Yalangto'shbiy, a prominent statesman, great military commander, and patron of construction who played an important role in the history of Movarounnahr in the 17th century. The following sections examine his origins, military and political activities, governance style as the ruler of Samarkand, as well as his contributions to the construction of architectural monuments in the Registan complex, based on historical sources. The results of the study allow Bahodir Yalangto'sh to be evaluated as a significant historical figure who occupied an important place in the development of Uzbek statehood and culture.

Keywords: *military commander, amir al-ulama, Movarounnahr, amir, khans, Registan ensemble, Sherdor Madrasa, Tillakori Madrasa, Alchin tribe, defense.*

Hammamizga ma'lumki, xotira va qadrlash tuyg'ulari o'ziga xos qadriyat sifatida qon-qonimizga singib ketgan. Inson xotira bilan tirik, qadr bilan ulug'.

Ajdodlar xotirasini yod etib, ezgu ishlarini davom ettirish, shuningdek osmonimiz musaffoligi, sarhadlarimiz dahlsizligi yo'lida, yurtimizga yovuz niyatda bostirib kirgan bosqinchilarga qarshi mardlarcha kurashib, Vataniga, xalqiga sodiq qolganlarni, Vatan fidoyilarini yod etish xalqimizga xos ezgu fazilatdir[1].

Shu bilan bir qatorda o'zbek davlatchiligimizdagi sarkarda va davlat arboblarning fidoyiliklari, misli ko'rilmagan jasurliklarini ham aytib o'tsak

qishlog'ida Haziniy to'ra uy-muzeyi 1992 yildan boshlab faoliyat yuritmoqda. [7, - B.23.]

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak Qo'qon xonligi madaniy hayotini o'rganishda Ziyovuddinxon Haziniy to'raning o'rni judda yuqori hisoblanadi. Uning asarlarida o'sha davr siyosiy-ijtimoiy muhiti, adabiy jarayonlari, diniy-marifiy qarashlari va saroy madaniyati o'z aksini topgan. Shoirning asarlari nafaqat badiiy qiymati, balki tarixiy manba sifatidagi ahamiyati bilan ham ajralib turadi. Shu bois ham uning ijodi xonlik madaniy hayotini yoritishda qimmatli ma'lumotlar beradi.

Shayx va shoir Haziniy biografiasini tiklashda bir necha yozma ma'lumot, fakt va xotira-hikoyalar manba vazifasini o'tab, uning hayotiga oid ayrim lavhalarni yoritish imkonini bersa-da, uning to'la ilmiy tarjimai holini tuzish qiyin. Lekin, ushbu bayon etilganlar shoir hayoti va shaxsiyati to'g'risida ma'lum tasavvur beradi. Kelgusida bunday tadqiqotlarning sirasi yanada ko'payadi, degan umiddamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bobobekov H. N. "Qo'qon tarixi" – Toshkent: FAN nashiryoti, 1996.
2. "Devoni Muhsiniy" O'ZRFA Sharqshunoslik insituti fondi, 7392-raqamli qo'lyozma.
3. Jo'raboyev O. R. "Haziniy Xo'qandiy hayoti va ijodi merosi" Nomzodlik dissertatsiyasi. -Toshkent, 2003.
4. "O'zbek tili va adabiyoti"- Toshkent, 2005.
5. Jo'raboyev O. R. "Haziniy to'ra devoni" - Toshkent, 2010.
6. Yusupov Sh. "Haziniy to'ra merosiga bir nazar" Haziniy devon, – Toshkent, 2010.
7. Qayumov P. D. "Taskirai Qayumiy" 3-kitob,- Toshkent, 1998.

MARKAZIY OSIYO ALLOMALARI ASARLARINING ZAMONAVIY MANBASHUNOSLIKDAGI O'RNI

Nig'matillayeva Fotimaxon

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 501-guruh 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: t.f.f.d., (PhD), dotsent Alijonova Gulnozaxon

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada Markaziy Osiyo hududida yetishib chiqqan buyuk allomalar tomonidan yaratilgan ilmiy, tarixiy, falsafiy va adabiy asarlarning zamonaviy manbashunoslik fanidagi o'rni va ahamiyati tahlil etiladi. Tadqiqot davomida mazkur asarlarning tarixiy manba sifatidagi xususiyatlari, ularni tanqidiy o'rganish usullari hamda fanlararo tadqiqotlarda qo'llanish

imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, allomalar merosining zamonaviy tarixshunoslik, filologiya va madaniyatshunoslikda ishonchli manba sifatida xizmat qilishi, ularning tarixiy jarayonlarni aniqlash va qayta talqin etishdagi roli ko'rsatib beriladi. Maqolada Markaziy Osiyo allomalari asarlarini saqlash, tarjima qilish va ilmiy muomalaga kiritish masalalarining dolzarbligi asoslanadi. Tadqiqot natijalari ushbu boy ilmiy meros zamonaviy manbashunoslik taraqqiyotida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo allomalari, manbashunoslik, tarixiy manbalar, ilmiy meros, yozma manbalar, tanqidiy tahlil, tarixshunoslik, qo'lyozmalar, tarjima va talqin, fanlararo tadqiqotlar, madaniy meros, tarixiy xotira.

Kirish. Markaziy Osiyo qadimdan ilmiy, madaniy va diniy merosga boy hudud sifatida tarix sahnasida muhim o'rin tutgan. Bu mintaqa turli davrlarda olimlar, allomalar, tarixchilar, faylasuflar va adiblar yetishib chiqqan markaz bo'lib, ularning yaratgan asarlari nafaqat o'z davrida, balki keyingi avlodlar uchun ham ilmiy va madaniy manba vazifasini bajarib kelgan. Ushbu asarlar tarixiy voqealarni yoritish, ijtimoiy hayotni aks ettirish, til va adabiyot rivojini saqlash, shuningdek, ilmiy tafakkur va falsafiy qarashlarni tarqatish imkonini bergan.

Zamonaviy manbashunoslik fanida Markaziy Osiyo allomalari asarlari o'rganishning o'ziga xos ahamiyati bor. Chunki ular tarixiy haqiqatni aniqlash, manbalarni tizimli ravishda tahlil qilish va tarixshunoslikni rivojlantirishda ishonchli manba sifatida xizmat qiladi[1, - B.88.]. Allomalarning asarlarida nafaqat siyosiy va ijtimoiy voqealar, balki madaniyat, urf-odatlar, ilmiy bilimlar va falsafiy qarashlar ham o'z ifodasini topgan. Shu bois ularni o'rganish tarixshunoslik, filologiya, etnografiya, antropologiya va madaniyatshunoslik kabi fanlararo tadqiqotlarda ham katta ahamiyatga ega.

Ushbu maqola doirasida Markaziy Osiyo allomalari asarlarining zamonaviy manbashunoslikdagi roli, ularni tanqidiy tahlil qilish, tarixiy va xronologik tizimga joylashtirish metodlari hamda ushbu boy merosning global ilmiy tadqiqotlarda qo'llanish imkoniyatlari o'rganiladi. Shuningdek, maqolada manbashunoslik fanining mohiyati, asosiy vazifalari va metodlari haqida ham so'z boradi, chunki ushbu metodologiya orqali Markaziy Osiyo allomalari merosining ilmiy qiymati va zamonaviy tadqiqotlardagi o'rni yanada aniqroq ko'rinadi.

Markaziy Osiyo allomalari merosini o'rganish nafaqat tarixiy voqealarni qayta tiklashga, balki mintaqaning ilmiy va madaniy identitetini saqlashga xizmat

qiladi. Shu bois, ularning asarlari manbashunoslik va tarixshunoslikning eng muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism: Manbashunoslik - tarixiy manbalarni topish, tasniflash, kritik tahlil qilish va ularning ishonchliligini aniqlash bilan shug'ullanadigan ilmiy soha. Tarixning har bir davri uchun manbalar to'plami va ularni talqin etish usullari farq qiladi, shuning uchun ham an'anaviy Markaziy Osiyo manbalarini qayta o'rganish zarur. Markaziy Osiyo allomalari asarlari ko'pincha:

- tarixiy voqealar bayoni;
- falsafiy qarashlar;
- til va adabiyot namunalari,

Markaziy Osiyo allomalari: tarixiy manba sifatida. Markaziy Osiyo olimlari ko'plab fan sohalarida faoliyat yuritgan. Ularning asarlari bugungi manbashunoslik uchun quyidagi jihatlarda muhim: Allomalar yozgan asarlar ko'pincha o'z davrining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotini aks ettiradi. Masalan, tarixchilar yozgan risolalar orqali turlicha davlatlar, sulolalar va urushlar haqida to'g'ridan-to'g'ri ma'lumotlar olinadi[2, - B.45.].

Ko'plab markaziy osiyolik olimlar arab, fors, turkiy til-lardagi asarlarida o'sha davr tilining leksikasi, uslubi va grammatik tuzilishi saqlanib qolgan. Bu tillarni o'rganish, vaqt o'tishi bilan ularning rivojlanishi manbashunoslik uchun muhim ahamiyatga ega.

Allomalarning asarlarida tasvirlangan ijtimoiy munosabatlar, urf-odatlar va kundalik hayot manbalari orqali qadimgi jamiyatlar antropologiyasi haqida ma'lumotlar hosil bo'ladi.

Zamonaviy manbashunoslikda an'anaviy asarlar quyidagi asosiy tahliliy jihatlari orqali o'rganiladi: Manbalarni kritik tahlil qilish metodlari yordamida ularning ishonchliligi, yaratilish sharoitlari, muallif qarashlari aniqlanadi. Bu jarayonda muallifning maqsadi, voqea-hodisalarga yondashuvi va boshqa shu kabi omillar chuqur o'rganiladi[3, - B.89.].

Tarixiy voqealar vaqt tartibida joylashtirilganda, allomalarning bayonlari asosida aniqlashtirish va tartibga solish imkoniyati paydo bo'ladi. Bir manbada uchraydigan faktlar boshqa manbalardagi ma'lumotlar bilan solishtiriladi. Bu yondashuv haqiqatga yaqin ma'lumotlarni ajratib olishda qo'l keladi.

Bugungi kunda klassik markaziy osiyolik allomalarning asarlari:

- global tarix yondashuvida mustaqil manba sifatida qo'llanilmoqda;
- Sharq va G'arb tarixiy tafakkurini bog'lovchi ko'priklar vazifasini o'tayapti;
- filologiya, etnografiya, madaniyatshunoslik va boshqa fanlararo tadqiqotlarda asosiy material bo'lib xizmat qilmoqda.

Masalan, turkiy-fors tarixiy asarlarining tarjima va tahlili Markaziy Osiyo xalqlari tarixini qayta tiklash va ularning mintaqaviy identitetini chuqurroq anglashda muhim omil bo'lmoqda[4, - B.67.].

Zamonaviy manbashunoslik markaziy osiyolik klassik asarlar bilan ishlashda bir qator muammolarga duch keladi:

- asarlarning bir nechta qo'lyozma nusxalarining farqlari;
- asarlar mualliflik huquqi, tarjima va talqin bo'yicha noaniqliklar;
- turli tillardagi manbalarni aniq tarjima va kontekstda o'rganish zaylasi.

Bu muammolarni yechish uchun filologlar, tarixchilar va tilshunoslarning birgalikdagi ishlashi zarur.

Xulosa qilib aytganda. Markaziy Osiyo allomalari asarlari zamonaviy manbashunoslik fanida muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular tarixiy voqealarni aniqlash, qadimgi madaniyat va ilmiy merosni o'rganish hamda tarixshunoslikni rivojlantirishda asosiy manba vazifasini bajaradi. Ushbu asarlar nafaqat tarixiy ma'lumotlarni, balki til, adabiyot, falsafa va ijtimoiy hayot haqidagi boy ma'lumotlarni o'zida jamlagan.

Zamonaviy manbashunoslik metodlari yordamida ularni tanqidiy tahlil qilish, xronologik va intertekstual bog'liqliklarni aniqlash mumkin bo'ladi. Shu tariqa, Markaziy Osiyo allomalari merosi nafaqat milliy tarixni tadqiq qilishda, balki xalqaro ilmiy tadqiqotlarda ham ishonchli manba sifatida xizmat qiladi.

Bugungi kunda ushbu boy ilmiy va madaniy merosni saqlash, tarjima qilish, ilmiy nashrlar orqali ommaga taqdim etish va fanlararo tadqiqotlarda qo'llash manbashunoslikning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu bois, Markaziy Osiyo allomalari asarlarini zamonaviy manbashunoslik doirasida o'rganish nafaqat tarixiy haqiqatni aniqlash, balki mintaqaning ilmiy va madaniy identitetini saqlashda ham muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Axmedov B. O'zbekiston tarixi manbalari. — Toshkent: O'qituvchi, 2001.
2. Qosimov B. Manbashunoslik asoslari. — Toshkent: Universitet, 2010.
3. Yo'ldoshev J. Tarixshunoslik va manbashunoslik masalalari. — Toshkent: Akademiya, 2015.
4. Bartold V.V. Turkiston madaniy hayoti tarixi. — Toshkent: Fan, 1990.

MIRZO ULUG‘BEKNING TARIXIY VA XRONOLOGIK MANBALARGA QO‘SHGAN HISSASI

Nig‘matillayeva Zuxraxon

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi I-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: t.f.f.d., dotsent Alijonova Gulnozaxon Muxammad qizi

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada Temuriylar davrining yirik ilmiy va ma‘rifiy arbobi Mirzo Ulug‘bekning tarixiy va xronologik manbalarga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda Ulug‘bekning tarixiy voqealarni aniq vaqt tizimi asosida o‘rganishga bo‘lgan yondashuvi, xronologiyani astronomik hisob-kitoblar bilan bog‘lash metodlari va yozma manbalarni tanqidiy tahlil qilishdagi ilmiy qarashlari yoritiladi. Ayniqsa, “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asarining tarixiy vaqtni aniqlashdagi ahamiyati va uning manbashunoslikdagi o‘rni ochib beriladi. Shuningdek, Ulug‘bek ilmiy maktabining shakllanishi, uning izdoshlari faoliyati va bu merosning zamonaviy tarixshunoslikdagi ahamiyati ko‘rsatib beriladi. Maqola Mirzo Ulug‘bekning ilmiy merosi tarixiy manbalarni tizimli va ilmiy asosda o‘rganishda muhim nazariy-amaliy poydevor bo‘lib xizmat qilishini asoslaydi

Kalit so‘zlar: Mirzo Ulug‘bek, xronologiya, tarixiy manbalar, manbashunoslik, astronomik kuzatuvlar, “Ziji jadidi Ko‘ragoniy”, vaqtni hisoblash, tarixshunoslik, Samarqand ilmiy maktabi, tanqidiy tahlil.

Kirish Mirzo Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek (1394–1449) o‘z zamonasining nafaqat buyuk davlat arbobi, balki noyob olimi sifatida tarixda chuqur iz qoldirgan shaxsdir. Temuriylar sulolasi davrida yaratilgan ilmiy maktablar va rasadxonalar orqali Ulug‘bek nafaqat astronomiya va matematika sohasida, balki tarixiy va xronologik tadqiqotlarda ham beqiyos hissa qo‘shgan. U yaratgan ilmiy tizimlar tarixiy voqealarni aniq vaqt va makon bilan bog‘lashga, shuningdek, tarixiy manbalarni tanqidiy tahlil qilishga imkon berdi. Shu tariqa, Ulug‘bekning merosi faqat ilmiy kashfiyotlar bilan cheklanmay, tarixshunoslik va manbashunoslik sohasida ham katta ahamiyat kasb etdi.

Mirzo Ulug‘bekning ilmiy faoliyati Samarqand shahrida yuzaga kelgan ilmiy-madaniy markaz bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u yerda turli fanlar bo‘yicha ilmiy maktablar tashkil etildi. Bu maktablarda tarixiy manbalarni tizimli ravishda o‘rganish, ularni xronologik tartibga solish va astronomik kuzatuvlar bilan bog‘lash kabi yondashuvlar shakllandi. Ulug‘bekning “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asari nafaqat astronomik ma‘lumotlar to‘plami, balki tarixiy

voqealarni aniq sanalar bilan belgilash imkonini beruvchi noyob manba sifatida tarixshunoslikda muhim o‘rin tutadi[1, - B.23.].

Uning metodologiyasi nafaqat yozma manbalarni tizimli tahlil qilishni, balki voqealarning sabab-oqibat aloqalarini aniqlashni ham o‘z ichiga olgan. Ulug‘bek shogirdlari va izdoshlari bu yondashuvni davom ettirib, Samarqand ilmiy maktabini yanada rivojlantirdilar. Shu bilan birga, uning ilmiy ishlari keyingi avlod tarixchilariga tarixiy haqiqatni aniqlash, manbalarni tanqidiy o‘rganish va xronologik tartibga solishda mustahkam asos bo‘lib xizmat qildi.

Ushbu maqolada Mirzo Ulug‘bekning tarixiy va xronologik manbalarga qo‘shgan hissasi, uning metodologik yondashuvlari, shuningdek, Samarqand ilmiy maktabi va uning izdoshlari faoliyati zamonaviy manbashunoslik va tarixshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqot Ulug‘bek merosining tarixiy manbalarni tizimli va ilmiy asosda o‘rganishdagi ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.

Asosiy qism: XV asr Temuriylar davri Markaziy Osiyoda ilm-fan va madaniyatning gullab-yashnagan davri sifatida tarixda qolgan. Bu davrda tarixiy manbalarni yaratish va ularni ilmiy tahlil qilish bilan shug‘ullangan olimlar faoliyat yuritgan. Mirzo Ulug‘bek, Temuriylar sulolasining yetuk vakili sifatida, ilmiy maktablar va rasadxonalar tashkil qilib, o‘z davrida tarixiy va xronologik tadqiqotlarni tizimli shakllantirishga katta hissa qo‘shdi[2, - B.33.].

Uning ilmiy faoliyati nafaqat astronomiya va matematika bilan, balki tarixshunoslik bilan ham chambarchas bog‘langan. Ulug‘bek tarixiy voqealarni aniq vaqt tizimi bilan bog‘lash va manbalarni tanqidiy o‘rganish masalalariga alohida e‘tibor qaratgan.

Mirzo Ulug‘bek xronologiya sohasida yangicha yondashuvni ilgari surdi. U tarixiy manbalarni tizimli tahlil qilishda quyidagi tamoyillarga tayangan:

- Astronomik kuzatuvlar yordamida voqealarning sanalarini aniqlash;
- Turli taqvim tizimlarini solishtirish va ularni bir-biriga moslashtirish;
- Manbalarni tanqidiy tahlil qilib, noto‘g‘ri yoki mubolag‘ali ma’lumotlarni ajratib olish;
- Tarixiy voqealarni sabab-oqibat aloqalari bilan aniqlash.

Bu metodologiya tarixiy manbalarni ilmiy asosda o‘rganish va xronologik tizimlarni yaratishning poydevorini tashkil etdi. Ulug‘bekning eng mashhur asari - “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” - asosan astronomik jadval bo‘lsa-da, tarixshunoslik va manbashunoslik uchun ham noyob manba hisoblanadi. Asarda yulduzlar, oy va quyosh harakati, ekvinoks va solstitsiya vaqtlari aniq hisoblangan [3, - B.77.].

Bu ma’lumotlar tarixchilar uchun:

- voqealarning aniq sanalarini belgilash;

- xronologik tizimlarni yaratish;
- boshqa tarixiy manbalar bilan moslikni tekshirish imkonini berdi.

Shu tariqa, Ulug‘bekning astronomik va tarixiy kuzatuvlari tarixiy manbalarni tanqidiy tahlil qilishda va xronologik tizimni shakllantirishda asos bo‘ldi. Ulug‘bek tarixiy manbalarni tizimli va tanqidiy yondashuv asosida o‘rgangan. U quyidagilarga e‘tibor bergan:

- Manbaning muallifi va yaratilgan davri;
- Tarixiy ma‘lumotlarning aniqligi va ishonchliligi;
- Afsonaviy yoki mubolag‘ali voqealarni aniqlash va ilmiy asosda rad etish;
- Turli manbalar orasidagi farq va o‘xshashliklarni solishtirish.

Bu yondashuv tarixiy faktlarni qayta tiklash va manbalarni ilmiy talqin qilishda muhim rol o‘ynadi.

Samarqanddagi Ulug‘bek rasadxonasi nafaqat astronomlar, balki tarixchilar va xronologlar uchun ilmiy markaz bo‘lgan. Rasadxonada faoliyat yuritgan G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Ali Qushchi va boshqa shogirdlar Ulug‘bekning ilmiy qarashlarini davom ettirib, tarixiy voqealarni aniqlashda astronomik hisob-kitoblarga tayangan.

Ulug‘bek ilmiy maktabining an‘analari keyinchalik Eron, Hindiston va Turkiya hududlariga tarqalib, Sharq tarixshunosligi rivojiga katta hissa qo‘shdi[4:98]. Mirzo Ulug‘bekning tarixiy va xronologik yondashuvi zamonaviy manbashunoslik va tarixshunoslikda katta ahamiyatga ega. Uning merosi orqali:

- Tarixiy voqealarni aniq xronologik tizimga joylashtirish;
- Manbalarni tanqidiy tahlil qilish;
- Tarixiy faktlarni ilmiy asosda talqin qilish mumkin.

Shu tariqa, Ulug‘bek merosi nafaqat Temuriylar davri tarixshunosligi, balki butun Sharq tarixshunosligi uchun poydevor vazifasini bajaradi.

Xulosa qilib aytganda, Mirzo Ulug‘bekning tarixiy va xronologik manbalarga qo‘shgan hissasi tarixshunoslik va manbashunoslik sohasida beqiyos ahamiyatga ega. U o‘z davrida ilmiy maktablar va rasadxonalar tashkil etib, tarixiy voqealarni aniq vaqt tizimi bilan bog‘lash, manbalarni tanqidiy tahlil qilish va xronologik tizimlarni yaratishda ilg‘or yondashuvlarni ishlab chiqqan. Ulug‘bekning “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asari nafaqat astronomik bilimlar manbai, balki tarixiy voqealarni sanalash va xronologik tartibga solishda ham muhim ahamiyatga ega. Tarixiy manbalarni ilmiy asosda o‘rganish va tanqidiy tahlil qilishdagi yondashuvi Sharq tarixshunosligi va manbashunosligining rivojlanishiga mustahkam poydevor yaratdi. Shuningdek, Samarqand ilmiy maktabi va Ulug‘bek shogirdlarining faoliyati uning

metodologiyasini davom ettirib, keyingi avlod tarixchilariga tarixiy haqiqatni aniqlash va voqealarni xronologik tizimda tasniflash imkonini berdi. Bugungi kunda Mirzo Ulug‘bekning merosi nafaqat tarixiy haqiqatni aniqlash, balki Markaziy Osiyo ilmiy-madaniy identitetini saqlash va rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Shu bois, Mirzo Ulug‘bekning tarixiy va xronologik manbalarga qo‘shgan hissasi zamonaviy manbashunoslik va tarixshunoslik uchun o‘rganilishi zarur bo‘lgan asosiy ilmiy meros sifatida qadrlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirzo Ulug‘bek. Ziji jadidi Ko‘ragoniy. - Toshkent: Fan, 1994.
2. Axmedov B. O‘zbekiston tarixi manbalari. - Toshkent: O‘qituvchi, 2001.
3. Qosimov B. Manbashunoslik asoslari. - Toshkent: Universitet, 2010.
4. Hofizi Abru. Zubdat ut-tavorix. - Fors tilidan tarjima. — Toshkent, 1998.

ABU RAYHON BERUNIYNING ASARLARIDA TARIXIY MANBALARNI TEKSHIRISH USULI

Raximova Ruxsora Sherzod qizi

Boshlang‘ich ta‘lim 501-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: t.f.f.d., dotsent Alijonova Gulnozaxon Muxammad qizi

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada Abu Rayhon Beruniyning asarlarida tarixiy manbalarni tekshirish usullari yoritilgan. Beruniyning tarixiy ma‘lumotlarga tanqidiy yondashuvi, manbalarni solishtirish, ilmiy dalillarga tayanish hamda astronomik hisob-kitoblardan foydalanish usullari tahlil qilingan. Maqola olimning tarixshunoslik faniga qo‘shgan ilmiy hissasini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: Abu Rayhon Beruniy, tarixiy manbalar, tarixshunoslik, tanqidiy tahlil, solishtirish usuli, ilmiy yondashuv, astronomik hisob-kitoblar.

АННОТАЦИЯ. В данной статье рассматриваются методы проверки исторических источников в трудах Абу Райхана Беруни. Анализируется его критический подход к историческим материалам, сравнение источников, использование научных доказательств и астрономических расчётов. Раскрывается вклад Беруни в развитие исторической науки.

Ключевые слова: Абу Райхан Беруни, исторические источники, историография, критический анализ, сравнительный метод, научный подход, астрономические расчёты.

ANNOTATION. This article examines the methods of verifying historical sources in the works of Abu Rayhan Beruni. It analyzes his critical approach to historical materials, comparison of different sources, reliance on scientific evidence, and the use of astronomical calculations. The article highlights Beruni’s contribution to the development of historical studies.

Keywords: Abu Rayhan Beruni, historical sources, historiography, critical analysis, comparative method, scientific approach, astronomical calculations.

Kirish. Abu Rayhon Beruniy (973–1048) oʻrta asr Sharqining eng buyuk va qomusiy olimlaridan biri hisoblanadi. U nafaqat tarixshunoslik, balki geografiya, astronomiya, matematika, mineralogiya, etnografiya, falsafa va tabiiy fanlar sohasida ham chuqur bilim va boy ilmiy meros qoldirgan [2, - B.15.]. Beruniy asarlarida ilmiy yondashuv, faktlarni tekshirish hamda manbalarga tanqidiy nuqtai nazardan qarash xususiyatlari yaqqol namoyon boʻladi.

Beruniy oʻz davrida tarixiy voqealarni shunchaki rivoyat qilish bilan cheklanmay, ularni turli manbalar asosida solishtirib, maʼlumotlarning haqqoniyligi va ishonchliligini aniqlashga harakat qilgan [3, - B.42.]. Olim tarixiy manbalarning aniqligi masalasiga alohida eʼtibor qaratib, bu borada oʻziga xos ilmiy yondashuv va usullarni shakllantirgan [1, - B.29.].

Beruniy tarixiy maʼlumotlarni tahlil qilishda faqat bitta manbaga tayanish yetarli emasligini, balki bir nechta manbalarni qiyosiy oʻrganish zarurligini taʼkidlagan [5, - B.61.]. Ushbu yondashuv unga tarixiy voqealarni yanada toʻliq, izchil va ishonchli tarzda yoritish imkonini bergan. U tarixiy tadqiqotlarda afsona va rivoyatlarga emas, balki aniq faktlar, dalillar va ishonchli yozma manbalarga tayanishni asosiy ilmiy prinsip sifatida belgilagan [1, - B.78.].

Olim turli xalqlarning tarixiy voqealari, urf-odatlarini va diniy eʼtiqodlarini qiyosiy oʻrganib, manbalardagi tafovut va xatoliklarni aniqlashga intilgan. Shu bilan birga, u tarixiy voqealarning vaqtini belgilashda astronomik hisob-kitoblardan foydalangan boʻlib, bu holat uning tarixiy maʼlumotlarni faqat matnlar asosida emas, balki ilmiy dalillar orqali asoslashga intilganligini koʻrsatadi [1, - B.112.].

Beruniy tarixshunoslikda manbalarni tahlil qilishda izchil va tizimli yondashuvni ilgari surgan. U maʼlumotlarni baholashda nafaqat yozma manbalarga, balki ogʻzaki anʼanalar hamda astronomiya, geografiya va matematika kabi fanlardan olingan maʼlumotlarga ham eʼtibor qaratgan [6, - B.34.]. Bu holat uning tadqiqotlarida fanlararo yondashuv muhim oʻrin tutganini koʻrsatadi.

Beruniyning bu ilmiy yondashuvi ayniqsa “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida yaqqol namoyon boʻladi. Ushbu asarda u oʻrta asr Oʻrta Osiyo va Sharq xalqlarining diniy eʼtiqodlari, bayramlari, yil hisoblash tizimlari va qadriyatlarini ilmiy asosda tasniflagan [1, - B.95.]. Diniy marosimlarning kelib chiqishi va rivojlanishini tarixiy kontekstda tahlil qilib, ularni turli madaniyatlar misolida qiyoslagan.

Olim tarixiy faktlarga yondashishda aniq misollar va dalillardan keng foydalangan. Jumladan, u turli xalqlarning taqvim tizimlaridagi farqlarni astronomik hisob-kitoblar orqali solishtirgan [4, - B.128.]. Hindistonga qilgan ilmiy safarlari davomida sanskrit tilini o'rganib, mahalliy manbalarni bevosita tahlil qilganligi uning ilmiy izlanishlariga mustahkam asos bo'lgan.

Beruniyning ilmiy metodologiyasi Ibn Sino bilan olib borgan ilmiy muloqotlarida ham namoyon bo'ladi. Ular Aristotelning "Fizika" asari yuzasidan ilmiy bahs-munozaralar olib borib, bilish jarayonida tajriba va nazariyaning o'zaro bog'liqligini tahlil qilganlar [2, - B.73.].

Beruniy tarixiy tadqiqotlarda eksperiment va aniq dalillarga katta ahamiyat bergan. U geografik kenglikni aniqlashda matematik va astronomik usullardan foydalangan, minerallarni o'rganishda esa ularning solishtirma og'irligini aniqlash va tizimlashtirish g'oyalarini ilgari surgan [6, - B.57.]. Beruniyning ilmiy merosi jahon ilm-faniga katta ta'sir ko'rsatgan bo'lib, ko'plab tadqiqotchilar uning ilmiy faoliyati va metodologiyasini yuqori baholaganlar [2, - B.91.].

Xulosa qilib aytganda, Abu Rayhon Beruniy o'z davrining eng ilg'or va qomusiy olimlaridan biri bo'lib, uning tarixiy manbalarni tekshirish usullari tarixshunoslik fanida muhim o'rin tutadi. U tarixiy ma'lumotlarga tanqidiy yondashib, manbalarni solishtirish orqali noaniq va noto'g'ri ma'lumotlarni aniqlashga harakat qilgan [3, - B.118.].

Beruniy tarixiy sanalarni aniqlashda astronomik hisob-kitoblardan foydalanish orqali tarixiy voqealarni ilmiy asosda yoritishga intilgan. Uning manbalarga tanqidiy munosabati va dalillarga tayangan metodologiyasi bugungi zamonaviy tarixshunoslik fanining muhim tamoyillariga uyg'un keladi. Shu sababli, Abu Rayhon Beruniy tarixshunoslik fanining rivojlanishida muhim o'rin egallagan olimlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Abu Rayhon Beruniyning tarixiy manbalarni tekshirishga doir qarashlari faqat o'z davri uchun emas, balki bugungi zamonaviy tarixshunoslik fani uchun ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Uning manbalarga tanqidiy munosabati, dalillarga asoslangan yondashuvi va fanlararo metodlardan foydalanishi tarixiy tadqiqotlarda xolislik va aniqlikni ta'minlashga xizmat qilgan. Beruniy tarixni subyektiv qarashlardan xoli holda, ilmiy mezonlar asosida o'rganish mumkinligini amalda isbotlab bergan.

Beruniyning tarixiy tadqiqotlarga oid qarashlari tarixshunoslik metodologiyasining shakllanishida muhim bosqich bo'lib xizmat qiladi. U tarixiy voqealarni faqat siyosiy hodisalar bilan cheklab qo'ymasdan, balki jamiyatning ijtimoiy hayoti, madaniy muhit, diniy e'tiqodlar va ilmiy bilimlar rivoji bilan

uzviy bog‘liq holda tahlil qilgan. Bu holat Beruniyning tarixiy jarayonlarga kompleks va tizimli yondashganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, Beruniy tarixiy manbalarni tekshirishda vaqt va makon omillariga alohida e‘tibor qaratgan. U voqealarning qachon va qayerda sodir bo‘lganini aniqlashni tarixiy haqiqatni anglashning muhim sharti deb bilgan. Shu sababli, olim astronomiya va geografiya fanlari yutuqlaridan foydalangan holda tarixiy sanalar va joy nomlarini aniqlashtirishga harakat qilgan. Bu yondashuv tarixshunoslikda ilmiy aniqlik va dalillilikni kuchaytirgan.

Beruniyning tarixiy manbalarni o‘rganishdagi yana bir muhim jihati — uning turli madaniyat va xalqlarga nisbatan xolis munosabatidir. U boshqa xalqlarning urf-odatlarini, diniy qarashlari va tarixiy an‘analarini baholashda biryoqlama qarashlardan qochib, ularni o‘z tarixiy sharoiti va ichki mantiqi asosida tushuntirishga intilgan. Bu esa Beruniyning ilmiy bag‘rikengligi va obyektivligini yaqqol namoyon etadi.

Mazkur tadqiqot ishida Abu Rayhon Beruniyning tarixiy manbalarni tekshirishga oid qarashlari va usullari ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi hamda ularning tarixshunoslik fanidagi o‘rni yoritiladi. Tadqiqot natijalari Beruniyning ilmiy merosi bugungi kunda ham tarixiy tadqiqotlar uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilishini ko‘rsatishga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Beruniy A.R. Hindiston. — Toshkent, 1990.
2. Djalilov M. Abu Rayhon Beruniy va uning ilmiy merosi. — Toshkent, 2005.
3. Nasriddinov O. Sharq olimlari va tarixshunoslik. — Toshkent, 2010.
4. Smith J. *The Methods of Historical Criticism in Medieval Islamic Scholarship*. — Cambridge, 2015.
5. Karimov F. O‘rta asr Sharqining ilmiy tafakkuri. — Toshkent, 2018.
6. Toshmurodov A. Abu Rayhon Beruniy: hayoti va faoliyati. — Samarqand, 2022.

IMOM TERMIZIY HAYOTI VA ILMIIY MEROSI TAHLILI

Baxtiyorova Munisa Botir qizi

Oriental universiteti Arab filologiyasi 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: t.f.f.d., dotsent Alijonova Gulnozaxon Muxammad qizi

ANNOTATSIYA. Imom Muhammad ibn Iso At-Tirmiziy (824–892) – buyuk muhaddis va faqih. U Termizda tug‘ilgan va bolalikdan ilm olish bilan shug‘ullangan. 30 yoshidan boshlab Nishapur, Bag‘dod, Xuroson va boshqa yirik ilm markazlariga safar qilib, hadis rivoyat qilgan va ustozlardan ta‘lim olgan.

Uning asosiy ustozlari – Imam Buxoriy, Imam Muslim, Imam Dovud va Imam ad-Dorimiy. Imam at-Tirmiziyning ilmiy merosi 6 ta kitobdan iborat bo‘lib, eng mashhuri – “Jome’ as-Sunan” (3956 hadis, 47 bob). Ushbu asar hadis va fiqhiy bilimlarni jamlagan va yangi terminlar qo‘llangan. Merosi butun musulmon ummati uchun qadrlidir va tadqiqot uchun muhim hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Imam At-Tirmiziy, hadis, Jome’ as-Sunan, ustozlar, fiqh, ilmiy meros.

ANNOTATION. Imam Muhammad ibn Isa Al-Tirmidhi (824–892) was a prominent hadith scholar and jurist. Born in Termez, he pursued Islamic sciences from childhood. From the age of 30, he traveled to major centers of knowledge such as Nishapur, Baghdad, and Khorasan to study and transmit hadiths. His main teachers were Imam Bukhari, Imam Muslim, Imam Abu Dawud, and Imam ad-Darimi. His scholarly legacy includes 6 works, the most famous being Jami’ al-Sunan (3956 hadiths, 47 chapters), which combines hadiths and fiqh knowledge and introduces new terminologies. His works are highly valued by the Muslim world and are essential for research.

Keywords: Imam At-Tirmidhi, hadith, Jami’ al-Sunan, teachers, fiqh, scholarly legacy.

ANNOTATSIYA. Imam Muxammad ibn Isa At-Termizi (824–892) – velikiy xadisoved i fakix. Rodilsya v Termeze, s detstva zanimalasya izucheniem islamskix nauk. S 30 let sovershal poezdki v Nishapur, Bagdad, Xorasan i drugie krupnye nauchnye sentry dlya izucheniya i peredachi xadisov. Osnovnye uchitelya: Imam Buxari, Imam Muslim, Imam Abu Davud i Imam ad-Dorami. Nauchnoe nasledie vklyuchaet 6 knig, samaya izvestnaya – «Djami as-Sunan» (3956 xadisov, 47 razdelov). Kniga ob’edinyayet xadisy i fikx, primenyaet novye terminy i yavlyaetsya sennym istochnikom dlya vsego musulmanskogo mira.

Kalit so‘zlar: Imam At-Termizi, xadis, Djami as-Sunan, fiqh, kalom.

Kirish. Imom Muhammad ibn Iso ibn Muso ibn az-Zohhak as-Sulamiy al-Bug‘iy at-Termiziy milodiy 824-yil(hijriy 209-sana)da Termiz yaqinidagi Bug‘ qishlog‘ida tavallud topganlar. Ba’zi rivoyatlarga ko‘ra esa, milodiy 815-yil(hijriy 200-sana)da dunyoga kelganlari aytiladi. Kuniyalari Abu Iso, nisbatlari Termiziy va Bug‘iydir. Vafotlari hijriy 279-yilning 13 rajabda bo‘lgan. Bu milodiy 892-yil 9-oktabrga to‘g‘ri keladi. Qabrlari Sherobod yaqinidagi Bug‘ qishlog‘ida.

Imom at-Termiziy rohimahulloh 835-yilgacha, ya’ni 11 yoshlarigacha o‘sha davrdagi an’anaviy ilmiy dasturlardagi kitoblarni o‘qib tugatganlar. Chunki u kishining hadis ilmidagi ustozlari Abu Ja’far Muhammad ibn Ja’far as-Simnoniy al-Qumusiy rohimahulloh o‘sha yilda dunyodan o‘tganlar. U zot ilm talabida 854-yilda safarga chiqqanlar. Demak, bu voqea 30 yoshlarida sodir bo‘lgan. Yosh

Abuy Iso ilm istab Xurosonning bir necha shaharlari, Ko'fa, Bag'dod, shuningdek, Iroq, Hijoz va boshqa o'lkalarga safar qilganlar. Imom az-Zahabiy rohimahulloh rivoyatlariga qaraganda, Abu Iso Misr va Shomga bormaganlar, ammo u yerlik muhaddislardan vosita orqali hadis rivoyat qilganlar. Ayrim tadqiqotchilar Abu Iso Bag'dodga bormagan degan fikrni aytganlar. Bunga sabab Xotib Bag'dodiy rohimahullohning "Tarixi Bag'dod" asrida bu haqida xabar berilmagan. Ammo Imom Termiziy rohimahulloh alayh Bag'dodlik 38 muhaddisdan hadis rivoyat qilganlar. Bundan ma'lum bo'ladiki, Abu Iyso Bag'doga ham borganlar. Bu 855-858 yillar oralig'iga to'g'ri keladi va o'sha davrda bu shahar hadis ilm markazlaridan biri bo'lgan. "Tarixi Bag'dod" asarida zikr qilinmaganiga keladigan bo'lsak, buning sababi ushbu kitobning qo'lyozma nusxalarida bu ma'lumot tushib qolganligidir[1, - B.35.].

855- yilga qadar Imom at-Termiziy Nishopurda bo'lganligi tahmin qilinadi. U zot Imom Buxoriy rohimahullohdan Nishopurda ta'lim olganlar. Imom Buxoriy Abu Isoning katta ustozlari va hadis fanidan eng ko'p ilmni o'rgatganliklariga shak –shubha yo'qdir.

Imom at-Termiziy rohimahullohning to'rt nafar ustozlari juda mashhurdir. Ular, Imom Buxoriy rohimahulloh, Imom Muslim rohimahulloh, Imom Dovud rohimahulloh va Imom ad-Dorimiy rohimahullohlardir. Abu Iso Imom Muslim rohimahullohda bittagina hadis rivoyat qilganlar. Imom Termiziy rohimahullohning boshqa muhaddislar singari hadis o'rgangan shayxlari ham ko'pdir. Bular orasida Barchamizga ma'lum bo'lganidek Imom Buxoriy rohimahullohning ustozlari ham bordir. Muhammad Habibulloh Muxtor rohimahulloh Abu Isoning ustozlari ismlari ro'yxatini ikki yuz yigirma bir (221) nafarga yetkazganlar. Shular sirasida to'qqiz nafar "Kutub at-tisa"ning mualliflarini ham ko'rishimiz mumkin. O'n to'qqiz nafar shayxdan Imom Termiziy, Imom Buxoriy va Imom Muslim rohimahullohlar hadis rivoyat olganlar. Imom Buxoriy rohimahullohning o'zi bilan yigirma yetti nafar shayxdan rivoyat qabul qilib olganlar. Qirq bir nafar shayxdan esa Imom Muslim rohimahulloh bilan birga rivoyat olganlar [2, - B.89.].

